

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

KAMPSIS O'SIMLIGINING AYRIM BIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI

Djumayev Xudoyberdi Kurbandurdievich b.f.n., dotsent.

Termiz davlat pedagogika instituti

Eshboyeva Surayyo Xolmurod qizi

Termiz davlat pedagogika institutining Biologiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Email:surayyo.eshboyeva@mail.ru Termiz, Uzbekistan

Annotatsiya: Kampsis o'simligining gulining jozibadorligi, asal shiraga boyligi, inson hayotidagi ahamiyati, biologik xususiyatlari haqida malumotlar berilgan.

Kalit so'z va iboralar: Kampsis, gul, tropik, subtropik, buta, rivojlanish, tirik organizmlar, foydali xususiyatlari.

Некоторые биологические свойства и значение растения камсис.

Аннотация: Приведены сведения о привлекательности цветка камсиса, богатства нектара и его значения в жизни человека, биологических свойствах.

Ключевые слова: камсис, светок тропический субтропический куст, развитие, живые организмы, полезные свойства.

Some biological properties and importance of Campsis plant

Annotation: Information about the attractiveness of the flower of the campsis plant, the richness of nectar, its importance in human life, and its biological properties are given.

Keywords: Campsis, flower, tropical, subtropical, bush, development, living organisms, beneficial properties.

Kampsis (*Campsis*) turkumi vakillari Shimoliy Amerika, Xitoy va Yaponiyada tarqalgan, bignoniya oilasiga mansub o'simliklardir. O'simlik asosan nam o'rmonli mintaqalarda o'sadi. Barglari to'qpatimon murakkab barg.

Gullari ikki jinsli, yirik, zigomorf, ro'vaksimon to'pgulda yig'ilgan. Mevasi har xil shakldagi ko'sakcha. Turkumning 2 turi ma'lum bo'lib, ko'pgina mamlakatlarda manzarali o'simliklar sifatida ekib o'stiriladi.

Kampsis o'simligi – kuchli, tez o'sadigan, yashil buta. Kampsis (*Campsis*) o'simligi gullashi deyarli butun yil davomida davom etadi. Gullarning rangi qizil, to'q-sariq ranglarda bo'lishi mumkin. Gul to'j barglari qaysi rangda bo'lsa gulkosa barglari ham shu rangda bo'ladi. Gulkosabarglari 5 ta qo'shib o'sgan. Gul to'j barglari ham 5 ta bo'lib, yarmigacha qo'shib o'sgan, ba'zan ikki labli, uzun o'ziga xos karnay shaklini hosil qiladi. Gulning nomi ham shundan kelib chiqqan “kampe” so'zning ma'nosi egilgan degan ma'noni anglatadi. Bu nom unga egilgan changchilari tufayli berilgan. Gul to'j barglari ajoyib shaklni hosil qiladi.

Changchilari 4 ta, erkin. Urug'chisi 1 ta, ikki xonali. Changlanishi hashoratlar yordamida amalga oshadi. Gulida maxsus nektardonlar joylashgan. Guli asal shiraga boy bo'ladi.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Gullarining tuzilishi karnay shaklida bo'lib, novdalar uchida 15-20 ta to'da bo'lib joylashgan. Gullarilari o'zlarning og'irligi ostida osilib turishi mumkin. Kampsis o'simligi qurg'oqchilikka va issiqqa, xattoki ortiqcha namga ham chidamli.

Kampsis vatanida yiliga 3-5 martagacha urug' berishi mumkin. Urug'lari shamol yordamida tarqaladi. Sababi vatanida changlovchi hashoratlar yetarli va yaxshi changlanib, urug' beradi. Kuz oxirida asta-sekin tinim holatiga o'tadi, qishda butunlay barglarini to'kib vegetatsiyasini to'xtatadi.

Kampsis o'simligi mamlakatimiz uchun ekzotik o'simlik hisoblanadi. Liana shaklida o'sadi. Inson hayotidagi ahamiyati tashkilot va korxonalar binolarining old qismlariga manzarali o'simlik sifatida ekib o'stiriladi.



Kampsis o'simligini parvarishlash uchun:

1. Kampsis yorug'sevor o'simlik bo'lgani va uning yaxshi rivojlanishi uchun quyosh tushib turadigan joylarga ekish tavsiya etiladi.
2. Quyosh yaxshi tushib turgan joylarda chiroyli va manzarali gullaydi.
3. Kampsis o'simligini muntazam ravishda sug'orib turish tavsiya qilinadi.
4. Eng muhim parvarish - vaqti-vaqti bilan shoxlarini kesib turishdir.

Kampsis o'simligi ahamiyati

Xulosa. Kampsis manzarali o'simlik sifatida ekib o'stiriladi va lanshaft dizayni sifatida foydalanish mumkin.



“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Prator O', Jumayev Q. Yuksak o'simliklar sestimatikasi. Toshkent 2003 yil.
2. *Campsis* // Flora of China: in 25 vol. / ed. by Z. Wu, P. H. Raven, D. Hong. — Beijing : Science Press ; St. Louis : Missouri Botanical Garden Press, 1998. — Vol. 18 : Scrophulariaceae through Gesneriaceae. — P. 220. — 449 p. — ISBN 978-0-915279-34-0. — ISBN 978-0-915279-55-5 (vol. 18).
3. Alwyn H. Gentry Bignoniaceae: Part II (Tribe Tecomeae) (Apr. 13, 1992) Flora Neotropica Vol. 25, No. 2
4. A revision of *Tecoma* Juss. (Bignoniaceae) in Bolivia JOHN R. I. WOOD Bot. J. Linn. Soc. 156: 145 2008
4. internet malumotlari:
www.ziyonet.uz